

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

VOLUME II | ISSUE 3 | MARCH-APRIL | 2024

ISSN: 2181-4031



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ- II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3-4

ТОШКЕНТ – 2024

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 3-4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2024-3-4>

Бош муҳаррир:

Тураев Б.

– фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д.

– иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент
2. Ходжаметова Гулчира Илишевна – тарих фанлари номзоди, профессор
3. Ҳайдаров Ўрал Ахмадович – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD), доцент
4. Мусаев Джамалиддин Камалович – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент
5. Жамолдинов Хумоюн Бахтиёрбек ўғли – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент в.б
6. Узакова Зарина Фуркатовна – социология ф.б.ф.д (PhD), доцент
7. Мамадияров Дилшод Уралович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент
8. Тўраев Шавкат Нишонович – фалсафа фанлари номзоди, доцент
9. Бердиева Гулмира Аминовна – тарих фанлари номзоди
10. Гаипов Жасур Бахром ўғли – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD)
11. Сохибова Лола Жонибоевна – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
12. Шарипов Дилшод Бахшиллоевич – сиёсатшунос, эксперт
13. Содиржонов Мухриддин
Махамадаминович – социология ф.б.ф.д (PhD)
14. Саттаров Дилшод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент
15. Турақулов Акмалжон Анварович – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
16. Каримов Бозарқул Худдайбердиевич – фалсафа фанлари номзоди

“Фундаментал тадқиқотлар” илмий-амалий журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.5 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

GAFUROV Farxod Rashidovich

Bojxona instituti katta o'qituvchisi

yu.f.b.f.d. (PhD)

mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10925504>

BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARNING TEZKOR-QIDIRUV VA KRIMINALISTIK TAVSIFIGA OID ILMIY YONDASHUVLAR

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifi tushunchasi va uning mohiyati, jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifining jinoyatlarni fosh etishdagi ahamiyati, shuningdek, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida bojxona sohasidagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifiga oid ilmiy yondashuvlar, olimlarning fikrlari va ularning izohlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bojxona sohasidagi jinoyatlar, tezkor-qidiruv tavsif, kriminalistik tavsif, tezkor-qidiruv va kriminalistik usullar, jinoyat tarkibi, bojxona nazorati, profillash, jinoyat profaylingi.

НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЙ И КРИМИНАЛИСТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В ТАМОЖЕННОЙ СФЕРЕ

АННОТАЦИЯ.

В данной научной статье рассмотрены понятие оперативно-розыскной и криминалистической характеристики преступлений и его сущность, значение оперативно-розыскной и криминалистической характеристики преступлений в раскрытии преступлений, а также научные подходы к оперативно-розыскной и криминалистической характеристике преступлений таможенной сфере в Республике Узбекистан, поясняются мнения ученых и их комментарии.

Ключевые слова: преступления в таможенной сфере, оперативно-розыскное описание, криминалистическое описание, оперативно-розыскные и криминалистические методы, состав преступления, таможенный контроль, профилирование, криминальное профилирование.

SCIENTIFIC APPROACHES TO OPERATIONAL DETECTIVE AND FORENSICAL CHARACTERISTICS OF CRIMES IN THE CUSTOMS SECTOR

ANNOTATION

This scientific article discusses the concept of operational-search and forensic characteristics of crimes and its essence, the importance of operational-search and forensic characteristics of crimes in solving crimes, as well as scientific approaches to the operational-search and forensic characteristics of crimes in the customs sphere in the Republic of Uzbekistan, explains the opinions of scientists and their comments.

Key words: crimes in the customs sphere, operational investigative description, forensic description, operational investigative and forensic methods, corpus delicti, customs control, profiling, criminal profiling.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida bojxona organlari faoliyatini rivojlantirish, shu jumladan bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha faol islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish borasidagi ustuvor yo‘nalishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy vazifalar belgilab berilgan:

- yagona elektron reestr yaratish orqali jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan tortib ish yuzasidan hukm chiqarilguniga qadar bo‘lgan jarayonni individual raqam va QR kodi orqali kuzatib borish imkoniyatini joriy qilish;

- dalillarni to‘plash va mustahkamlash faoliyatini zamonaviy texnologiyalar va so‘nggi ilmiy yutuqlarni joriy qilish orqali to‘liq raqamlashtirish.

Yuqoridagilarni inobatga olib aytganda, bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida bojxona organlarining bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatida tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo‘llashni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish yo‘nalishida bir qator samarali natijalarga erishib kelinmoqda.

Xususan, customs.uz Internet sayti ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish borasida 21 968 ta holatda 972,8 mlrd so‘mlik tovarlarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yildi. Davlat byudjetiga 165,3 mlrd so‘m qo‘shimcha to‘lovlar undirildi. Shuningdek, mamlakatimizda aholi sog‘ligi va xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida 9 207,5 kg giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi fosh etilib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 8,4 tonnaga yoki 12,3 barobarga ortdi. Shuningdek, 650 ming dona psixotrop va kuchli ta‘sir etuvchi moddalar 21 dona qurol, 2 279 dona o‘q, 6 478 dona gilza kabi qurolyarog‘ va portlovchi moddalar aniqlandi. 2023-yil davomida 5,7 mln quti tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yildi.

Shu bilan birga, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish va oldini olish maqsadida yangi ish uslublari va axborot dasturlari amaliyotga joriy etildi.

Jumladan, sohani raqamlashtirish maqsadida 12 ta axborot tizimlari, 4 ta interaktiv xizmatlar va 5 ta mobil ilovalar amaliyotga kiritildi. Bojxona yuk deklaratsiyalarini inson omilisiz avtomatik rasmiylashtirish hajmi eksportda 86 foizni tashkil qildi.

Shunga qaramay, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish borasida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yangi ish uslublari va vositalaridan tashqari, bojxona xodimlari tomonidan bojxona sohasidagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifini bilish, mazkur turdagi jinoyatlarni samarali fosh etishning asosiy ustuvor mezonlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu borada shuni takidlash joizki, bugungi kunga qadar bo'xona sohasidagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifini bir qator mahalliy va xorijlik olimlar tadqiq etishgan.

O'zbekistonlik olim V.Karimov o'z ilmiy tadqiqotlarida jinoyatlarning tezkor-qidiruv tavsifiga quyidagicha ta'rif berib o'tadi:

Jinoyatlarning tezkor-qidiruv tavsifi deganda – muayyan turdagi jinoyatlarga xos bo'lgan jihatlarni bilish, ularning oldini olish va fosh etishga oid tashkiliy-taktik vazifalarni samarali hal etish imkonini beruvchi xususiyatlari va axborot belgilari tizimi tushuniladi.

O'zbekistonlik olim V.Karimovning fikriga ko'ra, muayyan turdagi jinoyatning tezkor-qidiruv belgilarining mazmuni boshqa bilim sohalari: jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual, psixologik, sotsiologik va iqtisodiy nuqtayi nazardan jinoyat belgilarini tashkil etuvchi axborot belgilarini o'z ichiga oladi. Tergov ishi nazariyasida tezkor-qidiruv xususiyatlari doirasida jinoyatchi shaxsining xususiyatlari ham ko'rib chiqiladi, bunda uning tipik, o'ziga xos xususiyatlari, jinoyatni fosh etish uchun zarur bo'lgan xususiyatlar tavsifi kiradi [1, B.317-318]

Rossiyalik olim A.I.Xmiz o'z ilmiy tadqiqotlarida jinoyatlarning kriminalistik tavsifiga quyidagicha ta'rif berib o'tadi:

Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi - bu alohida turdagi jinoyatlarning tavsifi, ehtimoliy tuzilishi, axborot modeli va kriminalistik muhim bo'lgan o'zaro bog'liq belgilar (elementlar)ni hamda mazkur turdagi jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda tergovni rejalashtirishga xizmat qiluvchi tergov versiyalarini tuzishni o'z ichiga oluvchi ma'lumotlar tizimidir.

Rossiyalik olim A.I.Xmizning fikriga ko'ra, jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifi o'zaro bog'liq hisoblanadi va o'z fikrini quyidagilar bilan asoslab beradi:

*Birinchi*dan, ilmiy termin sifatida jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifi bitta, ya'ni jinoiy hodisani tavsiflaydi, ularning asosiy maqsadi sodir etilgan jinoiy hodisa va uni sodir etgan shaxsni aniqlash maqsadida umulashtirilgan ma'lumot olish hisoblanadi;

*Ikkinchi*dan, jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ularni alohida-alohida tarkibiy qismlarga ajratib bo'lmaydi, chunki tezkor-qidiruv tavsif kriminalistik tavsifdan kelib chiqqan, tezkor-qidiruv tavsif esa kriminalistik va boshqa sohalar elementlarini o'ziga qamrab olgan;

*Uchinchi*dan, tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsiflar ma'lumotlarning asosi bo'yicha bir-biridan mustaqil bo'lishi mumkin. Ya'ni tezkor-qidiruv tavsif jinoyat belgilari haqida qidiruv hususiyatiga ega bo'lgan tezkor ma'lumotlarni o'ziga qamrab olsa, kriminalistik tavsif esa jinoyat belgilari bo'yicha dalil bo'ladigan ma'lumotlarni o'ziga qamrab oladi [2, B-163-166]

Shu bilan birga, rossiyalik olim R.S. Belkin jinoyatlarning kriminalistik tavsifiga quyidagi belgilar kirishini ta'kidlagan:

- jinoyat belgilari haqidagi dastlabki ma'lumotlar;
- jinoyatni sodir etish usuli va jinoyatni yashirish usuli hamda ularni qo'llashning tipik oqibatlarini to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ehtimoliy jinoyatchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- jinoyatning ayrim holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar (sodir etilgan joyi, vaqt, holati);
- jinoyat qurboni bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsning shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar [3, B.306-319].

O'zbekistonlik olim G'.Abdumajidovning fikriga ko'ra, jinoyatlarni fosh etishda ularning kriminalistik tavsifida quyidagi ma'lumotlar, ya'ni har qanday jinoyatni tergov qilishda haqiqatni aniqlash yetti hadli formula bilan, ya'ni nima, qayerda, qachon, qay tarzda, kim, kimning yordamida, nima uchun degan yettita savolga javob olish lozim. Lekin bu formulani universal deb bo'lmaydi, chunki u juda qisqa bo'lib, u har xil turdagi jinoyatlarni tergov qilish xususiyatlarini hisobga olish imkonini bermaydi. Jinoyat ishlarini tergov qilishda aniqlanishi lozim bo'lgan savollar doirasini o'n ikkitagacha ko'paytirish to'g'risidagi taklif ham bu kamchiliklarni bartaraf etgani yo'q degan fikrni ta'diklab o'tgan [4, B.15].

Bugungi kunda jinoyatlarga tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsif berishda, dastlabki tergov jarayonida aniqlanishi lozim bo'lgan, jinoyat tarkibining asosiy elementlari bo'yicha muayyan tizimga solingan jinoyatning quyidagi tarkibiy elementlarini kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- **jinoiy tajovuzning obyekt** - tajovuz nimaga qaratilgan, nimaga zarar yetkazilgan, zararining miqdori qancha va boshqalar;

- **jinoiy tajovuzning obyektiv tomoni** - qachon, qayerda, qay holatda, qanday usulda, bir yoki bir necha kishining harakati bilan sodir etilganmi, ularning har biri qanday harakatni bajargan, qilmish va yetkazilgan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish, jinoyatga ko'maklashgan holatlar, sabab va sharoitlar, vaziyat kabilar;

- **jinoiy tajovuzning subyekt** - kim tomonidan sodir etilgan, uning shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlar;

- **jinoiy tajovuzning subyektiv tomoni** - ayb shakllari, maqsad va motivlar.

Yuqoridagi jinoyat tarkibining elementlari bevosita bojxona sohasidagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifiga ham taalluqli deb aytish mumkin. Chunki bojxona sohasidagi jinoyatlar ham jinoyat turlarining bir toifasi hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, bojxona sohasidagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifini yoritib beradigan bo'lsak, dastavval bojxona sohasidagi jinoyatlarning tarkibiga izoh berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bojxona sohasidagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifi, ularning jinoyat tarkibi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi.

Jinoyat huquqi nazariyasiga ko'ra, bojxona sohasidagi jinoyatlarning tarkibini quyidagi *to'rt turdagi elementlar: obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon* tashkil qiladi.

Shunga ko'ra, *bojxona sohasidagi jinoyatlarning obyekt* davlat va jamiyatning iqtisodiy manfaatlari, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti asoslari va iqtisodiy xavfsizligi, jamoat osoyishtaligi hisoblanadi, bojxona sohasidagi jinoyatlarning bevosita obyekt sifatida kontrabanda ashyolari va tovar-moddiy qimmatliklarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishning qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibi hisoblanadi. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning predmetlari esa O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi tegishli moddalari ko'rsatilgan tovar yoki boshqa qimmatliklar, kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurolni, o'q-dorilarni yoki o'qotar qurolning asosiy qismlarini, shuningdek giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallar, uchuvchisiz uchish apparatlari, diniy mazmundagi materiallar, pornografiya, shavqatsizlik va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi materiallar tashkil etadi.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning obyektiv tomonini jinoyat predmetlarini O'zbekistonning bojxona chegarasidan bojxona sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilmagan holda olib o'tish tashkil etadi.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning subyekt esa aqli raso, jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan, jismoniy shaxs tashkil etadi.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning subyektiv tomonini esa ushbu turdagi jinoyatlarni qasddan sodir etish tushuniladi.

Shundan kelib chiqib aytganda, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda, bu kabi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifi quyidagilar bilan belgilanadi:

a) tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat to'g'risida ko'p tomonlama ma'lumotlarning mavjudligi;

b) alohida turdagi bojxona sohasiga oid jinoyatlarning belgilarini bilish;

v) tezkor-qidiruv faoliyatining yashirin kuchlari, vositalari va usullaridan eng samarali va ixtisoslashtirilgan foydalanish uchun shart-sharoitlarning yaratilganligi;

d) kriminalistikaning vositalari va usullaridan eng samarali va ixtisoslashtirilgan foydalanish uchun shart-sharoitlarning yaratilganligi.

Bu kabi tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifning maqsadi aniq jinoyatlarni samarali ochishning asosiy taktikasini ishlab chiqish uchun nazariy va axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifdan tashqari, rossiyalik olimlar *A.M. Abramov va I.A. Klimovlar jinoyatlarni fosh etishda* quyidagi tezkor-qidiruv tavsiflarini hisobga olish samarali bo'lishini aytib o'tgan:

- **jinoyi-huquqiy belgilar:** jinoyat qonuni, bunga misol tariqasida jinoyatlarning ayrim turlari bo'yicha aniq jinoyat ishlari syujeti, ularni tergov qilish jarayonida va sud protsessida yo'l qo'yilgan kamchiliklar va boshqalar;

- **jinoyat-protsessual belgilar:** jinoyat protsessida protsessual bo'lmagan (tezkor-qidiruv) ma'lumotlardan foydalanish nuqtayi nazaridan jinoyatlarning ayrim turlari bo'yicha ish yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutuvchi jinoyat-protsessual xususiyatlar;

- **kriminalistik belgilar:** gumon qilinuvchi shaxslarning jinoyat sodir etishdagi xulqi, tergov jarayoniga turlicha qarshilik ko'rsatishi, tergovchilarning tezkor xodimlar bilan hamkorligini tashkil etish, tezkor-qidiruv axborotidan foydalanish asosida tergov harakatlarini maqbullashtirishni ko'zda tutadi;

- **kriminologik belgilar:** umumiy va maxsus retsidivning darajasi, ayrim kriminogen guruhlar barqarorligi va jinoyatchilarning professionallashuvi, jinoyat sodir etishda ularning tajovuzkorligi holatlari;

- **psixologik belgilar:** gumon qilinuvchining ehtiyojlari, jinoyat sodir etish motivlari, qadriyat yo'nalishlari, shuningdek, gumon qilinuvchining shaxsiy xususiyatlari (xarakterlari, turmush tarzi, moyilligi, zararli odatlari), jinoyatchilarning tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish usullaridan xabardorligi, uni u yoki bu psixologik toifaga mansubligini aniqlashga imkon beruvchi boshqa xususiyatlar;

- **ijtimoiy-demografik belgilar:** yashash joyi va jinoyat sodir etish joyining nisbati, jinoyat sodir etgan shaxsning jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, u yoki bu sohadagi ish staji, mansabdorlik holati, ma'lumoti hamda millatini o'z ichiga oluvchi belgilari. Bu belgilar asosan jinoyat sodir etish usulini tanlash, sheriklar, jinoyi tajribaning mavjudligi, jinoyatni tayyorlash va uning izlarini yashirish uchun foydalanilgan bilimlarni tavsiflaydi. Ulardan aniq jinoyatni fosh etishda dalillarni olishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin;

- **iqtisodiy belgilar:** tashqi iqtisodiy faoliyatning turli tarmoqlarida jinoyat sodir etishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, maxsus hisob va iqtisodiy bilimlardan foydalanish, buxgalteriya jarayonining xususiyatlari, gumon qilinuvchi shaxs va uning oila a'zolarining moddiy ta'minlanganligi (ko'chmas mulk, avtomobillar, daromad manbalari, moliyaviy qo'yilma va jamg'armalar), ishbilarmonlik aloqalari, hokimiyat va jinoyi tuzilmalar bilan aloqa o'rnatish kabi belgilar kiradi [5, B-83-84].

Bundan tashqari, rossiyalik olim V.D.Larichev o'z tadqiqotida iqtisodiy jinoyatlarni fosh etishda quyidagi tezkor-qidiruv tavsiflarni aniqlash muhim ekanligini takidlab o'tgan:

- shaxs va uning oila a'zolarining moddiy ahvoli (ko'chmas mulk, avtomashinalar, daromad manbalari, moliyaviy investitsiyalar va jamg'armalarning mavjudligi);

- biznes aloqalari, davlat va jinoyi tuzilmalar bilan munosabatlari;

- jinoyatlarning ayrim turlarini sodir etgan shaxslarni aniqlashda yashirin xodimlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari;

- jinoyat sodir etishni kutish mumkin bo'lgan muqaddam sudlanganlar orasida tezkor-qidiruv faoliyatining kuch va vositalardan samarali foydalanish yo'nalishi [6, B-59].

Yuqorida rossiyalik olimlar *A.M. Abramov, I.A. Klimov va V.D.Larichevlar Rossiya Federatsiyasida jinoyatlarni fosh etishning tezkor-qidiruv tavsifini o'z ilmiy tadqiqotlarida yoritib bergan. Ularning ilmiy tadqiqotlarida ko'rsatilgan tezkor-qidiruv tavsiflarini O'zbekiston Respublikasida bojxona sohasidagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Chunki bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etish yuqordagi tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsiflarda ko'rsatilgan belgilarga ega bo'lgan holda namoyon bo'lmoqda.*

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 20-fevraldagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-son Plenumining 5-bandida bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida bojxona sohasidagi jinoyatlar quyidagi usullar bilan sodir etilayotganligiga izoh berib o‘tilgan:

Tovarlarni bojxona nazoratini chetlab o‘tkazish usuli – tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o‘tkazish punktlaridan tashqari yoki bojxona nazorati o‘tkazish vaqtidan tashqari olib kirish yoki mazkur hududdan olib chiqishdan iborat har qanday qasddan sodir etilgan harakat;

Tovarlarni bojxona nazoratidan yashirish usuli – tovarlarni topishni qiyinlashtirish yoxud ularning asl xususiyati yoki miqdorini yashirish (masalan, ayrim tovarlarga boshqacha ko‘rinish berish, ularni almashtirib qo‘yish, bojxona identifikatsiyalash vositalarini buzmaganda transport vositalarining yuk bo‘limlaridagi tovarlarni olib qolish, o‘rniga boshqa turdagi tovarlarni yuklash, tovarlarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘tkazish uchun maxsus tayyorlangan yoki moslashtirilgan xufiya joylardan (chemodanlar, sumkalar, transport vositalari, konteynerlar va boshqa tashish vositalarining konstruksiyaviy (tuzilish) xususiyatiga ko‘ra, ashyolarini saqlash yoki tashishga mo‘ljallanmagan bo‘shliqlari, devorlari (ramalari) oralaridan) foydalanish, jinoyat predmetlarini odam, hayvon tanasida va hokazo)ga qaratilgan har qanday harakatlar;

Bojxona hujjatlari yoki bojxona identifikatsiyalash vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanish usuli - bila turib qalbaki hujjatlar, bila turib yolg‘on ma‘lumotlar kiritilgan hujjatlar, qonunga xilof ravishda olingan yoki boshqa tovarlarga tegishli hujjatlar, haqiqiy bo‘lmagan hujjatlarni bojxona organlariga taqdim etish, shuningdek qalbakilashtirilgan bojxona identifikatsiyalash vositalaridan (plombalar, muhrlar, tamg‘alar bosish, identifikatsiyalash belgilari, shtamplar va boshqa identifikatsiyalash vositalari yoki boshqa tovarlarga tegishli haqiqiy identifikatsiyalash vositalaridan foydalanishdan iborat bo‘lgan harakatlar;

Tovarlarni deklaratsiya qilmasdan bojxona chegarasidan o‘tkazish usuli – tovarlarni olib kirish yoki olib chiqish (chiqarish), ularni tanlangan bojxona rejimi ostiga joylashtirish, bojxona to‘lovlarini hisoblash va undirish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan tovarlar haqidagi ma‘lumotlarni bojxona deklaratsiyasida bayon qilmaslikni yoxud deklaratsiyalanishi shart bo‘lgan tovarlarni “yashil” yo‘lak orqali olib o‘tish harakatlari;

Boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib tovarlarni bojxona chegarasidan o‘tkazish usuli – bojxona deklaratsiyasida yoki deklaratsiyalashning boshqa belgilangan shaklida tovarlar (nomlanishi, sifati va xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi ma‘lumotlar) to‘g‘risida yolg‘on ma‘lumotlarni aks ettirish harakatlari;

Bojxona chegarasini buzib o‘tish usuli – bojxona postiga hujum qilish, bojxona chegarasini har qanday texnikaviy vositalar yoki boshqa xil usullar bilan bojxona rejimi talablariga ochiqdan-ochiq bo‘ysunmaslik yoki boshqa har qanday yo‘l bilan bojxona chegarasini kesib o‘tishda ifodalangan harakatlar.

Yuqoridagi usullarni O‘zbekiston Respublikasida bojxona sohasidagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifiga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, jinoyat sodir etish usullari tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifning bir tarkibiy turi bo‘lishi rossiyalik olimlar *A.M. Abramov, I.A. Klimov va V.D.Larichevlar* tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Rossiyalik olim *A.P. Isichenkoning* fikriga ko‘ra, jinoyatlarning tezkor-qidiruv tavsifini o‘rganish faqat jinoyatga qarshi tezkor-qidiruv faoliyatining alohida muammolarini o‘rganish doirasida amalga oshiriladi, ya‘ni jinoyatlarning ayrim turlarini aniqlash, oldini olish va ochishga doir [7, B.41-45].

Rossiyalik olim *N.G.Yakovlevaning* fikriga ko‘ra, bojxona sohasidagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifiga quyidagicha ta‘rif berish mumkin:

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi – bu noqonuniy hatti-harakatlarni sodir etish usuli, mexanizmi, holati va ularning oqibatlarining tipik belgilari, bojxona sohasidagi jinoyatlarini sodir etish jarayoniga o‘zaro ta‘sir qiluvchi obyektlar, jinoyat sodir etgan shaxsning shaxsiga oid xususiyatlari, sodir etilgan vaqti va joyi, tipik moddiy va ideal izlari, huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi o‘zaro bog‘liq umumiy ma‘lumotlar tizimi. Ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish muammolarini hal qilishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan bojxona sohasidagi jinoyatlarning boshqa jihatlari haqidagi ma‘lumotlar tushuniladi [8, B-30-32]

Shunday qilib, yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytganda, bojxona sohasidagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifiga quyidagi ma‘lumotlarni kiritish mumkin:

1. Jinoiy qilmish joyi va predmeti haqidagi ma‘lumotlar;
2. Jinoyat sodir etish va uni yashirish usullari haqidagi ma‘lumotlar;
3. Jinoyat sodir etish va vaziyati haqidagi ma‘lumotlar;
4. Jinoyat sodir etish natijasida kelib chiqadigan izlar haqidagi ma‘lumotlar;
5. Sodir etilgan jinoyat oqibatlari haqidagi ma‘lumotlar;
6. Jinoyatni sodir etayotgan shaxslar tavsifi haqidagi ma‘lumotlar;
7. Jinoyat sodir etishga sharoit yaratgan holatlar haqidagi ma‘lumotlar.

Shu bilan birga, rossiyalik olimlar O.P.Gribunov va N.A.Nazirovalar jinoyatlarning kriminalistik tavsifi tushunchasi va tuzilishi bo‘yicha olimlar qarashlarining (yondashuvlarining) rivojlanish tarixini o‘rgangan. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari hamda AQSH va Kanada davlatlarida “Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi” tushunchasi mavjud emas, ularning o‘rniga “profillash” (profilirovaniye) va “Tergov tahlili” (sledstvenniy analiz) terminlaridan foydalaniladi [9, B.2]

Mazkur profillash termini o‘z mohiyatiga ko‘ra, “Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi” tushunchasiga mazmun o‘xshash hisoblanadi.

Jumladan, Internet xalqaro tarmog‘i “Vikipediya” ma‘lumotlari tahliliga ko‘ra, *profillash (tashxis qo‘yish)* - bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan gumon qilinuvchi shaxslarni aniqlash va bir shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash uchun qo‘llaniladigan usul. Bunday yondashuv jinoyatning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda gumon qilinuvchi shaxsni tavsiflash va jinoyatchining kelajakdagi harakatlarini bashorat qilish imkonini beradi.

Profillashning birinchi ilmiy asoslangan huquqiy jihatdan rasmiy ravishda qo‘lanilishi 1880-yillarda Angliyaning poytaxti Londonda sodir bo‘lgan. Bunda fohishalarning bo‘g‘zini kesib, shafqatsizlarcha o‘ldirgan Jek Ripperning shaxsini aniqlash maqsadida tergovga sud-tibbiyot eksperti Tomas Bond jalb qilingan va u tomonidan profillash qo‘llanilgan.

1956-yilda profillash usuli oldindan jinoyatchilar bilan ishlagan psixiatr Jeyms A. Brassell tomonidan qo‘llanilgan. Politsiya psixiatr Jeyms A. Brassellni Nyu-Yorkda 50ga yaqin qo‘lbola usulda tayyorlangan portlovchi moslamalarni (bombalarni) portlatgan shaxsni shaxsini aniqlash uchun jalb qilgan. J.A.Brassel ishni o‘rganib chiqqandan so‘ng, jinoyatchi slavyan millatiga mansub, jismonan baquvvat, o‘rta yoshli erkak ekanligini, u mexanikani yaxshi bilishini va yoshi kattaroq ayol bilan yashashini, jinoyatchi nihoyatda ozoda va muntazam ravishda cherkovga borishni, tanqidga juda keskin munosabat bildirishini, jinoyatning sababi ishdan bo‘shatish yoki ish joyida tanbeh bo‘lishi mumkinligini, jinoyatchi “Konsolideyted Edison” kompaniyasining sobiq yoki hozirgi xodimi bo‘lishi mumkinligini aniqlagan (profilini tuzgan, tashxis qo‘ygan). J.A.Brassel tuzgan jinoyatchining profili (belgilari) “Nyu-York Tayms” gazetasida chop etilgan. J.A.Brassel tuzgan jinoyatchining profili asosida Politsiya tyez orada 54 yoshli Djordja Meteskini hibsga olgan. U kelib chiqishi polshalik bo‘lib, elektrchi (elektrik) bo‘lib ishlagan. U tez-tez cherkovga borgan va ikki opa-singil bilan yashagan. Uning so‘zlariga ko‘ra, teraktlarni sodir qilish motivi sifatida “Konsolideyted Edison” kompaniyasidagi ish joyida olgan jarohati tufayli sil kasalligiga uchraganligini ma‘lum qilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi o‘zbekistonlik va xorijlik olimlarning fikrlariga ko‘ra, bojxona sohasidagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifi deganda, bojxona sohasidagi jinoyatlarni samarali fosh etishga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar, holatlar, shaxslar hamda usullar va vositalar tavsifi haqidagi ma’lumotlar majmui tushuniladi. Shuningdek, bojxona sohasidagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv va kriminalistik tavsifini bilish, mazkur turdagi jinoyatlarni samarali fosh etishga xizmat qiladi.

REFERENCES. ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ.

1. Karimov V. “Tezkor-qidiruv faoliyati” darslik. Toshkent sh. 2021-yil. 317-318-betlar.
2. Xmiz A.I. “O kriminalisticheskoy i operativno-rozisknoy xarakteristikax prestupleniy i ix sootnoshenii”. Nauchnaya statya. Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. 2015. № 398. S. 163-166.
3. Belkin R.S. Kurs kriminalistiki. V 3-x tomax. M.:Yurist. 1997. T. 3. S. 306-319.
4. Abdumajidov G‘. va boshqalar. “Kriminalistika” (I qism). Darslik. T.:”Adolat”, 2003. 15-bet.
5. Abramov A.M., Klimov I.A. *K voprosu o sodержanii operativno-rozisknoy xarakteristiki vida prestupleniy // Aktualnie voprosi borbi s prestupnostyu i problemi yee prepodavaniya: Sb. nauch. tr. M., 1996. S. 83-84.*
6. Larichev V.D. Ponyatiye i sodержaniye operativno-rozisknoy xarakteristiki lichnosti ekonomicheskogo prestupnika // Nauchniy portal MVD Rossii. 2008. № 3. S. 59.
7. Isichenko A.P. Operativno-razisknaya xarakteristika prestupleniy: fantom ili realnost? // Rossiyskiy sledovatel. 2015. № 13. S. 41 – 45.
8. Yakovleva N.G. Ugolovno-protsessualnie i kriminalisticheskiye osobennosti rassledovaniya prestupleniy, otnesennix k kompetensii tamojennix organov. Uchebno-metodicheskoye posobiye. G. Tver. 2017. S. 30-32.
9. Gribunov O.P., Nazirova N.A. “Evolyutsiya vzglyadov na ponyatiye i strukturu kriminalisticheskoy xarakteristiki prestupleniy”. Nauchnaya statya. Jurnal. [Izvestiya Tulskogo gosudarstvennogo universiteta. Ekonomicheskoye i yuridicheskoye nauki](#). G. 2020. S. 2.

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3-4

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz